



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'IIY INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	



DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBİ VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Yodgorov Xushvakt Mansurovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
mustaqil tadqiqotchisi
Email: yodgorovkhushvaqt@gmail.com
ORCID: 0009-0000-1926-4610

Abstract. This article develops procedures for reflecting the results of the sale of pharmaceutical products in the accounting records of enterprises, including the cost of medicines sold and the revenue generated from the sale of these products. These procedures are substantiated on the basis of the chart of accounts and accounting entries recommended by the author. The article also develops scientific and methodological recommendations for presenting sales results in the statement of financial results of pharmaceutical manufacturing enterprises. In addition, the expected results of implementing these recommendations in the practical activities of pharmaceutical industry enterprises are scientifically substantiated.

Keywords: medicines, pharmaceutical manufacturing enterprises, pharmaceutical production processes, accounting for pharmaceutical production processes, International Financial Reporting Standards, statement of financial results.

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda dori vositalarini sotish natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish, jumladan, sotilgan dori vositalari tannarxi hamda mazkur mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlarni hisobga olish tartiblari ishlab chiqilgan va muallif tomonidan tavsiya etilgan schyotlar rejasi hamda buxgalteriya yozuvlari asosida asoslangan. Shuningdek, maqolada dori vositalari ishlab chiqaruvchi korxonalarda sotish natijalarini moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettirish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalarni farmatsevtika sanoati korxonalari amaliyotiga joriy etish natijasida erishilishi kutilayotgan natijalar ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: dori vositalari, dori vositalari ishlab chiqaruvchi korxonalar, dori vositalari ishlab chiqarish jarayonlari, dori vositalari ishlab chiqarish jarayonlari hisobi, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot.

Аннотация. В статье разработаны процедуры отражения результатов реализации лекарственных средств в бухгалтерском учете предприятий, включая себестоимость реализованных лекарственных средств и доходы, полученные от их реализации. Данные процедуры обоснованы на основе предложенных автором плана счетов и бухгалтерских проводок. Кроме того, в статье разработаны научно-методические рекомендации по отражению результатов реализации в отчете о финансовых результатах фармацевтических производственных предприятий. Научно обоснованы также ожидаемые результаты внедрения предложенных рекомендаций в практическую деятельность предприятий фармацевтической промышленности.

Ключевые слова: лекарственные средства, фармацевтические производственные предприятия, процессы производства лекарственных средств, бухгалтерский учет процессов производства лекарственных средств, Международные стандарты финансовой отчетности, отчет о финансовых результатах.

KIRISH

Jahonda dori vositalari ishlab chiqarish sanoati sog'liqni saqlash sohasining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, jahonda dori vositalari ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi 12 mingdan ortiq subyekt ro'yxatga olingan bo'lib, ushbu korxonalar tomonidan har yili 60 milliarddan ortiq



retsept bilan va retseptsiz beriladigan dori vositalari ishlab chiqariladi. Shuningdek, ushbu manbaga ko'ra, butun dunyoda "farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish bozori hajmi 2024-yilda 607,38 million AQSH dollarini tashkil etdi va 2033-yilga kelib 782,05 million AQSH dollariga yetishi kutilmoqda, bu esa 2025-yildan 2033-yilgacha yillik o'sish sur'ati 3,21 foizni tashkil etishini anglatadi" [1].

Raqamlar tahlilidan xulosa qilib aytish mumkinki, jahonda ro'y berayotgan globallashuv sharoitida dori vositalari ishlab chiqarish sanoati eng tez rivojlanib borayotgan hamda mazkur tarmoqda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar daromadlari tizimli ravishda oshib borayotgan sohalardan biriga aylanmoqda. Dori vositalari ishlab chiqaruvchi korxonalar daromadlarining oshishi natijasida ushbu korxonalarning foyda ko'rsatkichlari ham mos ravishda ortib boradi. Shuning uchun butun dunyoda, jumladan, Respublikamizda dori vositalari ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy natijalarga oid ko'rsatkichlarini buxgalteriya hisobi va hisobot shakllarida, jumladan, korxonalarning moliyaviy natijalarini yoritib beruvchi moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Izlanishlarimiz davomida korxonalarda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni yuritishning ilmiy-amaliy tomonlarini tadqiq etishni lozim deb topdik. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosida "Daromadlar va xarajatlar tashkilot faoliyatining moliyaviy natijalari bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy hisobot elementlari hisoblanadi. Moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun tashkilotning moliyaviy holati to'g'risidagi hamda uning moliyaviy natijalari to'g'risidagi ma'lumot zarur" [2], deb keltirilgan.

"Moliyaviy hisobotni taqdim etish" 1-son BHXSnig 82-qismining "a" bandida foyda yoki zarar va boshqa daromadlar to'g'risidagi hisobotda yoritilishi lozim bo'lgan axborotlar qatorida "tushum" ko'rsatkichi ko'rsatilgan bo'lib, "daromad yoki xarajat moddalarini muhim bo'lsa, tashkilot ularning xarakterini va summasini alohida yoritib berishi lozim" [3], deb keltirilgan.

A. Z. Avloqulov bevosita moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borgan bo'lib, olimning ilmiy ishlarida "moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning ishonchligini ta'minlash maqsadida buxgalteriya hisobi axborotlarining sifatini oshirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan bo'lib, moliyaviy natijalarni xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan xalqaro standartlar talablari darajasida shakllantirishda organik balansning samarasi aniqlangan va undan foydalanish mexanizmi taklif etilgan" [4].

N. B. Abdusalomova o'zining ilmiy izlanishlarini metallurgiya tarmoqlari korxonalari misolida amalga oshirgan. Olima tomonidan moliyaviy natijalar elementlarini hisob hamda hisobotlarda aks ettirish, ularni nazorat va tahlil qilish bo'yicha izlanishlar olib borilgan [5].

B. F. Boronov moliyaviy aktivlarni sotish natijasida olingan daromad va xarajatlarni moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda yoritishning xorij tajribasi hamda ushbu ko'rsatkichlarni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha hisobotlarda yoritishning muammo va yechimlariga doir izlanishlarni amalga oshirgan [6]. Shuningdek, yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarini yoritishning ilmiy-amaliy masalalari hamda mazkur moliyaviy hisobot shaklini takomillashtirishning uslubiy tartiblari ishlab chiqilgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Dori vositalariga oid axborotlarni buxgalteriya hisobi va hisobotlarida aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha mazkur maqolada ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy tahlil, monografik kuzatuv, qiyoslash, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dori vositalari ishlab chiqarish korxonalarida dori vositalarini sotish jarayonlari natijalari 9010-"Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar" va 9110-"Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi" buxgalteriya hisobi schyotlar rejasida hisobga olinadi. Dori vositalari sanoati korxonalarida ishlab chiqariladigan tayyor mahsulot turlari ko'p bo'lishiga qaramasdan, ushbu mahsulotlarni sotish jarayonlarining buxgalteriya hisobida aks ettirilishi umumiy tarzda yuqorida keltirilgan schyotlar rejasi orqali amalga oshiriladi. Bu esa dori vositalariga oid sotish jarayonlari natijalarining moliyaviy hisobotlarda atroflicha va kengroq yoritilishi bo'yicha ma'lum bir cheklavlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun dori vositalari ishlab chiqarish korxonalarida dori vositalarini sotish jarayonlariga oid natijalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha quyidagi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan:



Dori vositalarini sotish jarayonlari natijasida olingan daromadlar buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha ilmiy tavsiyalar:

9010-"Dori vositalarini sotishdan olingan daromadlar";

9011-"Birlamchi qadoqlanadigan infuzion dori vositalarini sotishdan olingan daromadlar";

9012-"Ikkilamchi qadoqlanadigan infuzion dori vositalarini sotishdan olingan daromadlar";

9013-"Birlamchi qadoqlanadigan tabletka va kapsula shaklidagi dori vositalarini sotishdan olingan daromadlar";

9014-"Ikkilamchi qadoqlanadigan tabletka va kapsula shaklidagi dori vositalarini sotishdan olingan daromadlar";

9015-"Birlamchi qadoqlanadigan boshqa shakldagi dori vositalarini sotishdan olingan daromadlar";

9016-"Ikkilamchi qadoqlanadigan boshqa shakldagi dori vositalarini sotishdan olingan daromadlar".

Dori vositalarini sotish jarayonlari natijasida sotilgan dori vositalari tannarxi buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha ilmiy tavsiyalar:

9110-"Sotilgan dori vositalari tannarxi";

9111-"Sotilgan birlamchi qadoqlanadigan infuzion dori vositalari tannarxi";

9112-"Sotilgan ikkilamchi qadoqlanadigan infuzion dori vositalari tannarxi";

9113-"Sotilgan birlamchi qadoqlanadigan tabletka va kapsula shaklidagi dori vositalari tannarxi";

9114-"Sotilgan ikkilamchi qadoqlanadigan tabletka va kapsula shaklidagi dori vositalari tannarxi";

9115-"Sotilgan birlamchi qadoqlanadigan boshqa shakldagi dori vositalari tannarxi";

9116-"Sotilgan ikkilamchi qadoqlanadigan boshqa shakldagi dori vositalari tannarxi".

Biz tomonimizdan tavsiya etilgan dori vositalarini sotish jarayonlariga oid schyotlar rejasining boshqa schyotlar bilan bog'lanishi quyidagi jadval ko'rinishida yoritildi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Korxonalarda dori vositalarini sotish jarayonlari buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha tavsiya etilgan schyotlar rejasining buxgalteriya yozuvlarida qo'llanilishi [8].

No	Operatsiya mazmuni	Debet	Kredit
1	Birlamchi qadoqlanadigan infuzion dori vositalari sotildi	4010	9011
		9111	2811
2	Ikkilamchi qadoqlanadigan infuzion dori vositalari sotildi	4010	9012
		9112	2812
3	Birlamchi qadoqlanadigan tabletka va kapsula shaklidagi dori vositalari sotildi	4010	9013
		9113	2821
4	Ikkilamchi qadoqlanadigan tabletka va kapsula shaklidagi dori vositalari sotildi	4010	9014
		9114	2824
5	Birlamchi qadoqlanadigan boshqa shakldagi dori vositalari sotildi	4010	9015
		9115	2831
6	Ikkilamchi qadoqlanadigan boshqa shakldagi dori vositalari sotildi	4010	9016
		9116	2832

Dori vositalarini sotish jarayonlari natijalarini aks ettirish uchun biz tomonimizdan tavsiya etilgan schyotlar rejasi va ularning qo'llanilishi dori vositalari ishlab chiqarish korxonalarida axborotlar shaffofligini ta'minlashga, moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini boshqarish va nazorat qilishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Maqola doirasida dori vositalarini sotish jarayonlari natijalarini moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettirishga doir ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish lozim deb topildi. Ushbu tavsiyalar quyida keltirilgan (2-jadvalga qarang):



2-jadval.

“Temur Med Farm” MCHJ dori vositalari ishlab chiqarish korxonasining moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotida aks ettiriladigan dori vositalariga oid axborotlar qamrovini kengaytirish bo'yicha tavsiyalar [9].
2026-yil 1-yanvar holatiga, ming so'mda

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kod	Hisobot davrida	
		Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)
1	2	5	6
Dori vositalarini sotishdan sof tushum, shu jumladan:	010	193 365 049	x
Birlamchi qadoqlanadigan infuzion dori vositalarini sotishdan sof tushum	011	12 904 667	x
Ikkilamchi qadoqlanadigan infuzion dori vositalarini sotishdan sof tushum	012	132 947 616	x
Birlamchi qadoqlanadigan tabletka va kapsula shaklidagi dori vositalarini sotishdan sof tushum	013	11 967 370	x
Ikkilamchi qadoqlanadigan tabletka va kapsula shaklidagi dori vositalarini sotishdan sof tushum	014	35 545 396	x
Birlamchi qadoqlanadigan boshqa shakldagi dori vositalarini sotishdan sof tushum	015		x
Ikkilamchi qadoqlanadigan boshqa shakldagi dori vositalarini sotishdan sof tushum	016		x
Sotilgan dori vositalari tannarxi, shu jumladan:	020	x	64 201 961
Sotilgan birlamchi qadoqlanadigan infuzion dori vositalari tannarxi	021	x	4 619 005
Sotilgan ikkilamchi qadoqlanadigan infuzion dori vositalari tannarxi	022	x	46 622 744
Sotilgan birlamchi qadoqlanadigan tabletka va kapsula shaklidagi dori vositalari tannarxi	023	x	3 988 611
Sotilgan ikkilamchi qadoqlanadigan tabletka va kapsula shaklidagi dori vositalari tannarxi	024	x	8 971 601
Sotilgan birlamchi qadoqlanadigan boshqa shakldagi dori vositalari tannarxi	025	x	0
Sotilgan ikkilamchi qadoqlanadigan boshqa shakldagi dori vositalari tannarxi	026	x	0
Dori vositalarini sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr.010-020)	030	129 163 088	0
Infuzion dori vositalarini sotishning yalpi foydasi (zarari)	031	94 610 534	0
Tabletka va kapsula shaklidagi dori vositalarini sotishning yalpi foydasi (zarari)	032	34 552 554	0
Boshqa shakldagi dori vositalarini sotishning yalpi foydasi (zarari)	033	0	0
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (satr. 030-040+090)	100	97 754 979	0
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari) (satr. 100+110-170)	220	96 843 677	0
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (satr. 220+/-230)	240	96 843 677	0
Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (satr. 240-250-260)	270	79 515 809	0

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ushbu ilmiy tavsiyalar buxgalteriya hisobotlarining dori vositalariga oid axborotlar qamrovini yanada kengaytirishga imkoniyat beradi, deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dori vositalari sanoati korxonalarida sotish jarayonlari natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning axborot qamrovini kengaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan mazkur ilmiy tavsiyalar dori vositalari ishlab chiqarish korxonalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Maqola doirasida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan mazkur tavsiyalar quyidagi xususiyatlarga ega:

Birinchidan, dori vositalarini sotish natijalari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning bir qancha ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi. Xususan, moliyaviy hisobotda asosiy faoliyatga doir operatsiyalar tarkibida dori vositalarini sotishdan olingan daromadlar hamda sotilgan dori vositalari tannarxini aks ettirish bo'yicha amaldagi tartibda bittadan satr keltirilgan. Fikrimizcha, dori vositalari ishlab chiqarish korxonalarida ushbu ko'rsatkichlarning axborot qamrovini kengaytirish va har bir mahsulot bo'yicha olingan daromatlarni alohida satrlarda aks ettirish lozim. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan hamda dori vositalari ishlab chiqarish korxonalariga tavsiya etilgan mazkur hisobotda aynan ushbu jihatlar hisobga olindi.



Ikkinchidan, moliyaviy hisobotning asosiy elementlaridan biri “foyda” ko’rsatkichi hisoblanib, moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobotda 5 ta foyda ko’rsatkichini yoritishga doir satrlar ishlab chiqilgan. Korxonalarda dori vositalari tannarxi sotish jarayonlari natijalariga, jumladan, sotishning yalpi foyda yoki zarar ko’rsatkichiga ta’sir ko’rsatadi. Shu bois, ushbu ko’rsatkichning muhimligini hisobga olgan holda, korxonalarda dori vositalarini sotishning yalpi foydasi yoki zarari hisobotlarda dori vositalarining har bir guruhi bo’yicha alohida satrlarda aks ettirilishi yuzasidan ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Uchinchidan, foyda solig’i hisobotini to’g’ri tayyorlash va uni o’z vaqtida taqdim etish dori vositalari ishlab chiqarish korxonalari oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur hisobotda ishlab chiqarilgan har bir mahsulot tannarxi va uning sotish bahosi o’z aksini topishi lozim bo’lib, ana shu ikki ko’rsatkich o’rtasidagi farq ayrim hollarda teskari, ya’ni sotilgan mahsulot tannarxi uning sotish bahosidan yuqori bo’lib qolishi mumkin. Bunday vaziyatlar ishlab chiqarish korxonalarida qo’shimcha foyda solig’i hisoblanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, korxona moliyaviy natijalarini yoritishda har bir mahsulotni sotishdan olingan foyda yoki zarar aniq aks ettirilsa, foyda solig’i hisobotini tezkor va aniq tayyorlashga, shuningdek, ushbu hisobot shakli bilan foyda solig’i hisobotini o’zaro solishtirishga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Market Reports World. *Pharmaceutical Manufacturing Market Size, Share, Growth, and Industry Analysis, Regional Insights and Forecast to 2033*. Report ID: 14720912. – 2025. Elektron manba: Market Reports World
2. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-son buyrug’iga 1-ilova. *Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi*. – Toshkent, 2022. Elektron manba: LexUZ
3. 1-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (IAS 1) “Moliyaviy hisobotni taqdim etish”. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-son buyrug’iga 2-ilova. – Toshkent, 2022. Elektron manba: LexUZ
4. Avlokulov A. Z. *Moliyaviy natijalar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish*: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 71 b. Elektron bibliografik manba: OAK materiallari
5. Abdusalomova N. B. *Boshqaruv hisobi tizimida ichki nazorat va budjetlashtirish uslubiyatini takomillashtirish*: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – B. 26. Elektron manba: O’ZA — dissertatsiya himoyasi haqidagi rasmiy e’lon
6. Boronov B. F. *Korxonalar moliyaviy aktivlari hisobini takomillashtirish*: iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: TMI, 2021. – 150 b. Elektron bibliografik manba: Ziyonet elektron manbasi
7. Boronov B. F. *Yog’-moy mahsulotlari hisobi metodologiyasini takomillashtirish*: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: TMI, 2023. – 244 b. Elektron manba: OAK materiallari
8. Boronov B. F. Yog’-moy mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari hisobining nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish // *Research and Education*. – 2022. – Vol. 1, Issue 7. – B. 84–93. – ISSN 2181-3191. Elektron manba: Research and Education
9. Boronov B. F. Improvement of Financial Reporting on Finished Products in the Oil Industry of the Republic of Uzbekistan // *Journal of Management Value & Ethics*. – 2022. – Special Issue. – P. 49–57. Elektron manba: Journal of Management Value & Ethics
10. Boronov B. (2019). Theoretical and Conceptual Bases of Accounting Financial Assets // *International Finance and Accounting*. – 2019. – No. 4. – Article 6. Elektron bibliografik manba: Bibliografik tasdiq
11. O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-noyabrdagi 191-son buyrug’i bilan tasdiqlangan O’zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-son BHMS) “*Xo’jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo’llash bo’yicha yo’riqnoma*”. Adliya vazirligida 2024-yil 27-dekabrda 3593-son bilan davlat ro’yxatidan o’tkazilgan. Elektron manba: LexUZ — amaldagi 21-son BHMS rekvizitlari va o’zgartirishlari



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
